

ONLAYN MAKTAB - DAVR TALABI

**Usmanxodjaeva Gavxar Abduhxamidovna
"Leader school" NTM psixologi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'limning kelib chiqish tarixidan to hozirgi kungacha rivojlanishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek zamonaviy ta'limdagi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar yoritilgan. Maqolada davlat maktablardagi sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi va shu narsa ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatayotganligi hamda bugungi kunda shu muammolarning yechimi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, inson kapitali, xususiy investitsiyalar, davlat ta'lim sektori, nodavlat ta'lim sektori, kasbiy mahorat, jismoniy va psixologik tajovuzlar, o'qituvchilar malakasi, avlodlar nazariyasi, onlayn maktab, sinxron va asinxron darslar, Online maktab" platformasi.

Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida ta'limning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlarining ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.

Davlatimiz rivoji uchun inson kapitalining muhimligini va zarurligini qonun va qonunosti hujjatlarda ko'rishimiz mumkin.

2023 yilning "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili" deb nomlanishi va ta'lim-tarbiyani takomillashtirish vazifasi kun tartibiga qo'yilgani bunga yaqqol dalolatdir. Ta'lim sohasiga ta'sir etuvchi muammolardan biri - bu maktablarimizdagi o'quvchi o'rinlarining mavjudligi va har yili 1 millionga yaqin tug'ilayotgan bolalarni o'quv joylari bilan ta'minlashdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yilning o'zida 70 ga yaqin yangi maktab qurilishi, 460 ta maktabni kengaytirish, 100 ta maktabni ta'mirlash rejasi haqida o'z chiqishlarida aytib o'tdilar.*

Bundan tashqari, xususiy investitsiyalar hisobiga 5 yil ichida yana 1000 ta yangi maktablar qurilishi ko'zda tutilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, davlatimiz mamlakatimizdagi tug'ilish darajasini inobatga olgan holda maktablar sonini ko'paytirmoqda, ta'lim olish imkoniyatini barcha bolalarga yaratishga harakat qilyapti. Ammo bunday jadal o'sish va bepoyon mamlakatimiz geografiyasini hisobga olgan holda maktablar soni yetarli bo'ladimi?

Aytaylik, maktab binolari ham tez qurilar, ammo uning tarkibida infratuzilma, jihozlar, pedagogik kadrlar, didaktik materiallar, darsliklar va boshqalar kabi yana ko'plab elementlar mavjud. Yurtimizda millionga yaqin kichkintoy o'sib ulg'aymoqda va ular ta'lim olish huquqiga ega. Yillar davomida ushbu sinflardagi o'quvchilar soni 25 nafar o'quvchi me'yorida bo'lsada, 35-40 nafar o'quvchi bilan to'ldirilib kelingan va ayrim maktablar 2 va 3 smenali tartibda faoliyat ko'rsatib kelyapti.

Davlatimiz uchun bu juda katta muammo va ma'suliyat, albatta. Hozirgi kunda o'quvchilar o'rni bilan ta'minlash muammosi ikki yo'l bilan: davlat ta'lim sektori va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali hal etilmoqda.

Hozirda mavjud 10 500 ta davlat maktablarining loyiha quvvati, ya'ni me'yori bo'yicha o'rinlar mavjudligi va o'quvchilarning haqiqiy soni o'rtasidagi farq 1,1 milliondan oshadi. Joylar yetishmovchiligi sababli sinflarning to'ldirilishi 35-40 nafar o'quvchini tashkil etishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmoqda.

Milliy ta'limning yana bir muammosi - maktablarda malakali o'qituvchilarning yetishmasligi. Ularning kasbiy darajasi haqida Xalq ta'limi vazirligi va Davlat inspeksiyasining attestatsiya natijalarini vaqti-vaqti bilan e'lon qiladigan ochiq manbalardan bilib olishimiz mumkin. Manbalarga ko'ra, jami o'qituvchilarning atigi 68% o'qituvchilik darajasi qoniqarli

ekanligini ko'rsatdi. 32% o'qituvchilar esa, sertifikatlash jarayonidan yo o'tmagan, yoki qatnashmagan.

Biz qandaydir xalqaro attestatsiya yoki sertifikatlash haqida emas, balki davlat standartlari doirasida o'qituvchilar uchun odatiy tartib haqida gapiryapmiz. Bu raqamlar tashvishga soladi, chunki o'qituvchilarning malakasi va kasbiy mahorati ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy sharti ekanligini hamma yaxshi biladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oxirgi vaqtlarda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi salbiy munosabatlarning shov-shuvli holatlari ko'payib bormoqda. Balki avval ham shunday bo'lgandir, lekin hozir o'zbek xalqining so'nggi 3-4 yil ichida internet malakalariga ega bo'lishi va oshkoralikning rivojlanishi tufayli bu holat yaqqol ko'zga tashlanyapti. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga jismoniy va psixologik tajovuzlar; o'quvchi, o'qituvchi va ko'pincha ota-onalar o'rtasidagi salbiy munosabatlar haqidagi videoroliklarni ko'ryapmiz.

Jamiyatdagi bahs-munozaralar shuni ko'rsatadiki, bular bitta maktabdagi alohida holatlar emas, balki ko'plab maktablarda uchrayotgan xodisalar. Ma'lumki, kimlardir sukutda, o'qituvchini jismoniy jazo o'tkazish huquqiga ega deb hisoblab, oshkora qilmay "Go'shti sizniki, suyagi bizniki", - deb indamay o'tadi, kimdir maktabni almashtiradi va yana kimdir esa, holatni ijtimoiy tarmoqlarda oshkora etadi.

Muammoning yana bir tarafi, yangi avlodning xususiyatlaridir. "Men qila olmayman", "Men xohlamayman", "Menga bu nima uchun kerak?", - degan savollarga zulm va qo'pollik orqali singdirilgan bilim hech qachon o'zlashtirilmaydi va foyda bermaydi. Bundan tashqari, doimiy tanbeh berish o'qishga qiziqishni o'ldiradi va boshqa noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin. O'quvchilarni haqorat qiladigan, kamsitadigan, o'quvchilar o'rtasida nosog'lom munosabatlar o'rnatadigan, ulardan foydalanib, nafaqat baholarni, balki bolaning shaxsiyatini kamsitadigan o'qituvchilar doim bo'lgan. Qanchadan qancha insonlar yoshlik chog'ida maktab davrida olgan ruhiy jarohatlarini ulg'ayganida psixolog va kouchlar yordamida hal qilishganini eshitamiz.

Zamon tez o'zgarimoqda, ro'y berayotgan global o'zgarishlar hayotimizga kirib kelayotgan yangi texnologiyalar, tabiiy kataklizmalar, yangi ilmiy izlanishlar natijalari oqibatida yuzaga kelmoqda. Undan tashqari, bolalarning har 5 yilda o'zgarishini ham ko'ryapmiz. Hozirda avlodlar nazariyasiga asoslanib, bolalarning ta'lim tarbiyasiga mutlaqo boshqacha yondoshuv talab etilmoqda. Ammo ta'lim tizimi, uning inertsiyaliligi sababli, juda sekin o'zgarib bormoqda. Xuddi shu o'qituvchilar bundan 20, 30 yil avval o'zlarini yagona ma'lumot manbai va bolalarni o'qitishda asosiy figura deb hisoblagan holda dars berishmoqda. Bunday emasligini hammamiz bilamiz va tushunamiz.

O'qituvchining "bilim beruvchi" maqomidagi vazifasi uzoq vaqt mobaynida asosiy bo'lgan bo'lsada, endi ular murabbiy va kouch funksiyasiga o'tishi kerak. Lekin, tafakkurni o'zgartirish oson emas, u - og'riqli, vaqt talab qiladigan va kuch sarflanadigan jarayon.

O'qituvchi kasbi doimiy ravishda o'sishni, yangi bilimlar asosida kasbiy kompetentsiyalarini takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun biz eski bilimlarni o'rganishga qiziqmaydigan o'quvchilar va zamonaviy voqelikka moslasha olmaydigan o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda inqirozni ko'ramiz.

O'quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilganida, eng ta'sirligi, maktab jamoasida o'quvchining kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lishiga ishonchning mavjudligi ekanligi isbotlangan. Demak, o'qituvchi o'z o'quvchilariga munosib ta'lim berish uchun qanchalik qiziquvchan va mas'uliyatli bo'lishi kerakligini tasavvur qilish qiyin emas.

Milliy ta'limdagi muammolarni hal qilish mumkinmi?

Zamonaviy texnologiyalar yuzaga kelishi barcha sohalarda o'zgarishlarga olib keldi.

Masalan, pandemiya davrida aynan kommunikatsiya texnologiyalari yordamida barcha sohalar o'z faoliyatini davom ettirdi. Turli davlatlar ta'lim tizimlari masofaviy ta'limga tayangan holda vaziyatdan katta yo'qotishlarsiz chiqish choralarini ko'ra boshladi. Masalan, Xitoyda qisqa muddat ichida maktab o'quvchilarini bepul o'quv materiallari bilan ta'minlaydigan platforma ishga tushirildi. Frantsiyada "Mening sinfim uyda" platformasi orqali o'quvchilarga masofaviy kurslarda ta'lim olish imkoniyati yaratildi.

Yurtimizda ham pandemiya davrida qisqa muddat ichida o'quvchilar uchun onlayn ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi. Xalq ta'limi vazirligi "Onlayn maktab" loyihasini joriy etdi.

E'tiborli jihati - yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga masofaviy ta'lim haqida modda kiritildi. Mazkur qonunning 16-moddasiga ko'ra, masofaviy ta'lim o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internetdan foydalangan holda masofadan turib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Endilikda, masofaviy ta'limni tashkil etish tartibini O'zbekiston hukumati belgilaydi.

Aslida, masofaviy ta'lim uzoq tarixga ega. U 1728 yilga borib taqaladi, o'shanda Bostonlik o'qituvchi Kaleb Fillips o'z o'quvchilariga qisqa darslarni pochta orqali yuborgan.

1840-yillarning boshida Internet paydo bo'lishidan ancha oldin, britaniyalik pedagog Isaak Pitman an'anaviy pochta va boshqa ijodiy vositalar yordamida sirtqi kurslarda stenografiya darslarini bergan. Va 1930-yillarda 25 dan ortiq davlat kengashlari, 200 ta maktab tizimlari va bir nechta kollej va universitetlar o'zlarining radio-eshittirish dasturlarini taklif qilishni boshlagan.

Masofaviy ta'lim 20-asrning oxirida yanada ilg'or texnologiyalar va aloqa turlari paydo bo'lishi bilan qadri osha boshladi.

Biroq, faqat 2000-yillarning boshlarida Internet paydo bo'lishi bilan masofaviy ta'lim dasturlarining vujudga kelishi va mashhurligi keskin oshdi. Internet va kompyuterlar masofaviy ta'limni tez, arzon va qulay qildi.

Bugungi kunda har bir ta'lim darajasida masofaviy ta'lim dasturlariga ro'yxatdan o'tish odatiy holdir va bular asosiy savodxonlikdan doktorlik dasturlariga qadar barcha ta'lim darajalarida mavjud.

1996 yilda Jons xalqaro universiteti akkreditatsiyadan o'tib, onlayn format dasturini to'liq ishga tushirgan birinchi oliy o'quv yurtiga aylandi.

Keyingi yillarda kollej va universitetlarning aksariyati tezda bu ta'lim turiga moslashishdi.

Dunyoning Garvard va Stenford kabi nufuzli universitetlari endi o'z talabalari uchun to'liq onlayn formatda masofaviy ta'lim dasturlarini taklif qilmoqdalar. Internet orqali onlayn ta'lim olish endi odatiy holdir.

Masofaviy ta'lim mavjudligi va qulayligi tufayli dunyo bo'ylab ko'plab odamlar orasida ta'lim - ta'lim olishning afzal usuliga aylandi.

Ta'lim formati texnologiyadan foydalanish orqali an'anaviydan farq qilsa-da, ta'lim missiyasi va akademik standartlar an'anaviy ta'lim bilan bir xil: sifatli ta'lim berish.

Masofaviy ta'lim juda qulay. Barcha ma'lumotlar va o'quv materiallarni bir joyda to'plash orqali disklar va boshqa axborot tashuvchi vositalardan foydalanishni istisno qilish mumkin. Bunday yondashuv ta'limni osonlashtiradi va ma'lumotlarni yo'qotish ehtimolini kamaytiradi.

Shuningdek, masofaviy kurslar nafaqat shaxsiy kompyuterlar, balki smartfonlar va boshqa qurilmalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Foydalanishdagi katta imkoniyatlar o'quv jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

An'anaviy ta'lim haqida so'z ketganda, uy-joy ijarasi, yo'l harajatlarini hisobga olish kerak. Masofaviy ta'lim bu muammolarni minimal harajatlar bilan hal qiladi. Eng muhimi

shundaki, onlayn ta'lim internetga kirish imkoniga ega bo'lgan har kimga, har qanday joyda va istalgan vaqtda jahon darajasidagi ta'limni taqdim etishiga umid bor.

Shu sababli, masofaviy ta'lim jarayonlarini tashkil etish maqsadida "Lider bolalar maktabi" nodavlat ta'lim muassasasida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "Online maktab" platformasi yaratildi.

Masofaviy ta'lim jarayonida ishtirok etadigan o'quvchilar mazkur platformada yuritiladigan maktabning o'quvchilar kontingentiga olindi.

Ushbu platformada umumta'lim maktablarining 7-sinflari uchun davlat dasturi doirasidagi barcha fanlar bo'yicha onlayn dars materiallari jamlangan.

Platformadagi har bir videodars davomiyligi 9 daqiqagacha davom etadi.

O'quv jarayonlari O'zbekistonda belgilangan o'quv dasturlari, o'quv reja va darsliklar asosida, sinxron (onlayn) va asixron (platformada mustaqil o'rganish) tartibida tashkil etiladi.

Masofadan o'qitish jarayonlarida o'quv dasturlarini ekranda o'rganayotgan o'quvchilarga har 20 daqiqadan so'ng tanaffus beriladi.

Masofaviy ta'limga biriktirilgan pedagoglar o'zlashtirishdan orqada qolayotgan o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ish olib boradilar.

Mutaxassislarning xulosalariga ko'ra, 2030 yilga kelib O'zbekiston aholisi 41 millionni tashkil etadi. Shunday ekan, masofaviy ta'limni joriy etish va uni rivojlantirish - ko'pgina masalalar va muammolarni hal etadi, degan umiddamiz.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

2. Gazeta uz. O'zbekistondagi ilk onlayn maktab o'z faoliyatini boshladi. Maqola. 2022 yil, 24 oktyabr.

3. Andreev A. A. Masofaviy ta'limga kirish: O'quv uslubi, qo'llanma. - M., 1997 yil.

4. Bogdanova A.I., Derenji N.D., Stefanova V.S. XXI asrda axborot va ta'lim. // Ochiq ta'lim. - 2001. - № 1.

5. Glazer G.D. Yangi Rossiya: Umumiy ta'lim va rivojlanayotgan jamiyat // Pedagogika. - 2000. - 6-son.

6. Moiseeva M.V. Koordinator masofaviy ta'lim jarayonida asosiy shaxs sifatida // Ochiq ta'lim. - 2001 yil - 1-son.